

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, PhD

Yeraliyeva Dilshoda Quchqor qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2- bosqich magistranti

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR TIL VA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

UO'K: 37.03.14.81.25

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_11_8](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_11_8)

TURAYEVA D.R., YERALIYEVA D.Q-Q. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR TIL VA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning til va nutqini rivojlantirish masalalari, bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va didaktik vositalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tayach so'z va tushunchalar: nutq rivojlanishi, til kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, didaktik o'yinlar, interaktiv metodlar, maktabgacha ta'lim.

ТУРАЕВА Д.Р., ЕРАЛИЕВА В.К.-К. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКА И РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

В данной статье освещаются вопросы развития речи и языка у детей дошкольного возраста, а также значение современных педагогических технологий и дидактических средств в этом процессе. Кроме того, проводится анализ передового зарубежного опыта и показаны возможности его применения в местных условиях.

Ключевые слова и понятия: развитие речи, языковая компетенция, коммуникативный подход, дидактические игры, интерактивные методы, дошкольное образование.

TURAEVA D.R., ERALIEVA V.K.-K. MODERN METHODS AND DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPING LANGUAGE AND SPEECH IN PRESCHOOL CHILDREN

This article addresses the issues of language and speech development in preschool-aged children, emphasizing the importance of modern pedagogical technologies and didactic tools in this process. Additionally, advanced foreign experiences are analyzed, and their applicability in local contexts is demonstrated.

Key words and concepts: speech development, language competence, communicative approach, didactic games, interactive methods, preschool education.

Kirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya tizimida til va nutq rivojlanishi shaxsning ijtimoiy moslashuvi, fikrlash qobiliyati va ma'naviy kamoloti uchun asosiy omil hisoblanadi. Bolaning so'z boyligi, grammatik qurilishi va nutqiy faolligi uning bilish jarayonlari — tafakkur, hissiyot va xotira bilan chambarchas bog'liqdir (Vigotskiy L.S., Leontyev A.N., Luria A.R.)¹.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda 2020 yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish strategiyasi"da bolalarda nutq va til kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra L.S.Vigotskiy², A.R.Luriya³, J.Piaje⁴ O.S.Ushakova⁵, Ye.I.Tixeeva⁶ nutq rivojlanishi bolaning kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy muhit, kattalar bilan muloqot, o'yin faoliyati orqali shakllanadi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola nutqiy malaka va til qobiliyatini kattalar yordamida, ya'ni interorizatsiya jarayoni orqali egallaydi. Shuningdek, J.Brunerning⁷ "dialogik o'qitish" g'oyasi bolalar bilan muloqot orqali ularning ma'naviy va til kompetensiyasini boyitishni nazarda tutadi. inson tafakkurini axborotni qayta ishlash jarayoni sifatida izohlaydi. U kognitiv rivojlanish (bilish jarayoni)ni tushuntirib, bolalar tafakkuri qanday shakllanadi va ular o'z tajribasidan qanday "ma'no" chiqaradi, degan savollarga javob beradi [1].

Asarning markazida inson bilim olishda faqat tashqi ma'lumotlarni emas, balki ular ortidagi ma'nolarni tushunish, tahlil qilish va umum-

lashtirish qobiliyatiga ega ekanligi haqidagi fikr turadi. L.S. Vyotskiy ta'kidlaganidek, nutq bolaning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish vositasidir; bola muloqot jarayonida til orqali atrofdagi dunyoni anglaydi, o'z fikrini ifodalaydi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Shu bois, maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik jarayon hamdir.

Erta bolalik davri — insonning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolada muloqotga tabiiy ehtiyoj paydo bo'ladi va u ushbu ehtiyojni dastlab eng sodda nutq vositalari orqali qondira boshlaydi. Ilmiy nuqtai nazardan nutq avvalo ijtimoiy hodisa sifatida — odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida shakllanadi. Keyinchalik esa u bolaning tafakkurini, atrof-muhitni bilish qobiliyatini, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish va boshqarish imkoniyatini ta'minlovchi kognitiv vositaga aylanadi. Bola fiziologik va psixik rivojlanar ekan, uning nutq tizimi ham bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Bu jarayonda lug'at zaxirasi kengayadi, so'zlarning ma'no jihatidan farqini anglash qobiliyati rivojlanadi, so'z yasalihi va so'z o'zgarishi qoidalarini amalda qo'llash malakalari shakllanadi. Shu bilan birga, bola iboralar, so'z birikmalari va sodda sintaktik konstruksiyalardan foydalana boshlaydi [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqni egallashi va uni rivojlantirish jarayonlari ularning kelgusidagi ta'lim faoliyati uchun muhim asos hisoblanadi. Ko'rib chiqqanimizdek, ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, bola nutqining rivojlanish darajasi uning kognitiv faolligi, ta'limga tayyorligi va ijtimoiy moslashuvining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Nutq faoliyatini shakllantirish jarayonida bola nafaqat til vositalarini o'zlashtiradi, balki muloqotdagi fikrni aniq va tiniq ifodalash, hamsuhbatning so'zlarini idrok etish hamda ma'noni anglash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. A.A.Leontyev nutq faoliyatining tuzilishini quyidagi bosqichlarda ifodalaydi:

- Motivatsiya – nutq faoliyatini ishga soluvchi ichki ehtiyoj yoki rag'bat;
- Nutq maqsadi – so'zlovchining muloqot orqali erishmoqchi bo'lgan natijasi;
- Nutq mazmunini shakllantirish – fikrning miqdor va mazmun jihatdan aniqlashuvi, ya'ni so'zlovchi nimani aytmqchi ekanini anglaydi,

¹ Leontyev A., Luria A. R., Vigotsky L. S. Psicología y pedagogía. – Ediciones Akal, 2004. – Т. 99.

² Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Эксмо, 2003.

³ Лурия А.Р. Об историческом развитии познавательных процессов //Психологическая наука и образование. – 1997. – Т. 2. – №. 4.

⁴ Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Litres, 2022.

⁵ Ушакова О.С. Развитие речи детей дошкольного возраста. - М.: Изд-во института психотерапии. – 2001.

⁶ Тихеева Е.И. Развитие речи детей. – М.: Издательство Юрайт, 2025. — 161 с.

⁷ Брунер Дж. Психология познания. За пределами непосредственной информации. Пер. с англ. - М.: Прогресс, 1977. - 413 с.

ammo hali qanday shaklda ifoda etishni bilmaydi;

- Fikrning soʻzga aylanishi – kognitiv mazmunning til shaklida ifodalanishi [3].

Shunday qilib, bola nutqi uning umumiy psixik rivojlanishining koʻzgidir. Shu bois, maktabgacha taʼlim tizimida lingvodidaktik yondashuvlar — yaʼni tilni oʻrgatish va nutqni rivojlantirishning pedagogik va psixolingvistik usullariga alohida eʼtibor qaratish talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taqlidchanlik (imitatsiya) xislati kuchli boʻlib, bu xususiyat nutq rivojlanishiga katta ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ilk yoshdan boshlab bola avval oila muhitida, keyinchalik maktabgacha taʼlim muassasasida kattalar nutqiga taqlid qilish orqali ogʻzaki tilni egallaydi. Goʻdakka aytilgan alla, erkalatish soʻzlari, ovutmacholqlar va musiqa ohanglari bola nutqining shakllanishi uchun muhim psixologik-pedagogik asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bola eshitgan har bir ohang, ritm va intonatsiya uning emotsional holatiga taʼsir koʻrsatib, nutqiy faolligni ragʻbatlantiradi. Bu jarayonda kattalarning ehtiyotkor, ifodaga boy va mazmunli nutqi bola uchun tabiiy model vazifasini bajaradi [5]. Nutqning rivojlanishi bolalarning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga qanday taʼsir qilishini tahlil qiladi. Nutqning shakllanish bosqichlari, til va nutq koʻnikmalarining paydo boʻlishi, shuningdek, nutq buzilishlari va ularni bartaraf etish usullari haqida maʼlumotlar berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish uchun samarali pedagogik metodlar, jumladan, interaktiv oʻyinlar, didaktik mashgʻulotlar va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyatini taʼkidlaydi. Nutq rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash uchun ota-ona va pedagoglarning hamkorligi muhim ekanligi qayd etilgan [5].

J.Piaje nazariyasiga koʻra, bolalarning fikrlash jarayoni nutq bilan chambarchas bogʻliqdir. Nutqning rivojlanishi bilan bolalar oʻz fikrlarini aniqroq ifodalash va tushunish qobiliyatiga ega boʻladilar. Piaje bolalarning fikrlash jarayonini bir nechta bosqichlarga ajratadi: Sensomotor bosqich (0–2 yosh): Bolalar tashqi dunyo bilan toʻgʻridan-toʻgʻri sezgi va harakatlar orqali tanishadilar; Predoperatsional bosqich (2–7 yosh): Bolalar ramziy fikrlashni boshlaydilar, ammo

hali abstrakt fikrlash imkoniyatiga ega emaslar; Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh): Bolalar aniq va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar; Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan katta): Bolalar abstrakt va gipotezik fikrlashni boshlaydilar.

J.Piaje bolalarning nutqini ijtimoiy kontekstda ham oʻrganadi. Uning fikricha, bolalarning nutq rivoji ijtimoiy oʻzaro taʼsirlar orqali shakllanadi. J.Piaje nazariyasi bolalarning fikrlash jarayonlarini chuqurroq tushunishda muhim oʻrin tutadi. Uning asarlari bolalarning kognitiv rivojlanishini oʻrganishda asosiy yoʻl-yoʻriq sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, Piaje nazariyasi pedagogika va psixologiya sohalarida keng qoʻllaniladi [4].

Erta bolalik davrida nutq rivojlanishini taʼminlash — bu nafaqat tilga oʻrgatish, balki bolaning ijtimoiy faolligi, hissiy barqarorligi va tafakkur rivojlanishiga yoʻnaltirilgan murakkab psixolingvistik jarayondir. Shu bois, zamonaviy maktabgacha taʼlimda nutqni rivojlantirish faoliyatini pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan uygʻun holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O.S.Ushakova bola nutqning rivojlanishini yosh davrlariga boʻlib, har bir bosqichning xususiyatini va vazifalarini tafsilot bilan yoritadi: ovoz va fonetik rivojlanish, leksik-leksik — semantik bosqichlar, grammatik va sintaktik shakllanish. Kitobda har bir yosh guruhi uchun (2–3 yosh, 3–4 yosh, 4–5 yosh, 5–7 yosh) maxsus vazifalar, mashqlar va kutilgan natijalar keltirilgan [6]. Muallif nutqni faqat texnik jarayon emas, balki ijtimoiy-kommunikativ jarayon sifatida koʻradi — bolaning nutqi ijtimoiy muloqot va fikrlash bilan uzviy bogʻliq. Ushakovanning yondashuvi qoʻllanmalar va amaliyot-orientlangan tadqiqotchilikka tayanadi: u psixolingvistik nazariyalardan (Vigotskiy L.S., Leontyev A.N. va boshqalar) farqli qoʻllashga oʻrin beradi va nutq rivojlanishini har tomonlama — akustik, leksik, grammatik va pragmatik jihatdan yoritadi. Kitobda nazariy boʻlimlar bilan birga, mashgʻulotlar va oʻyin-uprajnieniyalar konseptual asoslariga havolalar va izohlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning til va nutq rivojini taʼminlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va didaktik vositalarning samaradorligini aniqlash maqsad

qilingan. Shu bois tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, faoliyat yondashuvi, interaktiv pedagogika nazariyasi hamda lingvodidaktik rivojlanish tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqotning obyekti — maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanish jarayoni.

Predmeti esa — interaktiv o'yin texnologiyalari, zamonaviy didaktik vositalar (so'z, rolli, raqamli o'yinlar) orqali bolalar nutqini rivojlantirishning shakl, usul va vositalaridir.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati, Olmaliq shahri 3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Tadqiqotda jami 40 nafar 5–6 yoshli bola ishtirok etdi. Ular teng ikkiga — eksperimental va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba 3 bosqichda (tayyorgarlik, tajriba, nazorat-tahlil) amalga oshirildi.

Tadqiqot bosqichlari.

Tayyorgarlik bosqichda bolalarning dastlabki nutqiy rivojlanish darajasi o'rganildi. Kuzatuv, suhbat va pedagogik diagnostika (so'z boyligi, talaffuz, gap tuzish, muloqot faolligi) metodlari qo'llanildi. Tajriba-sinov bosqichida eksperimental guruhda nutqni rivojlantirish uchun So'z o'yinlaridan, so'z zanjiri, rasm asosida so'z aytish; Rolli o'yinlarda dramatisatsiya, dialog asosidagi sahnalashtirish; Raqamli interaktiv o'yinlardan multimedia dasturlari, ovozli topshiriqlar; Ijodiy hikoya tuzish o'yinlaridan rasm asosida voqeani mustaqil bayon qilish interaktiv metodlar tizimli qo'llanildi. Mashg'ulotlar 2 oy davomida haftasiga 3 marotaba o'tkazildi. Nazorat-tahlil bosqichida tajriba yakunida har ikki guruhda bolalarning nutq rivojlanishi qayta o'lchandi. Olingan natijalar taqqoslanib, o'zgarishlar foizda ifodalandi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda deskriptiv statistika va taqqoslama tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda Nazariy metodlardan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (O.S.Ushakova, D.J.Bruner, L.S.Vygotskiy, A.A.Leontyev asarlari asosida) va empirik metodlar kuzatuv, suhbat, pedagogik eksperiment, o'yin faoliyati tahlili, hamda statistik metodlar: natijalarni foizli o'lchash, o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash ilmiy-uslubiy metodlar majmuasi

qo'llanildi. Tadqiqotimiz metodologik poydevorini L.S.Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi¹, A.A.Leontyevning faoliyat yondashuvi konsepsiyasi², D.J.Brunerning "Kognitiv rivojlanish bosqichlari" haqidagi g'oyalari³ va O.S.Ushakovanning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi⁴ tashkil etadi. Ushbu nazariy manbalar asosida bolalarning nutq faoliyatini faollashtirish, kommunikativ ehtiyojlarini shakllantirish hamda ijodiy nutqni rivojlantirish tamoyillari ishlab chiqildi.

Natijalar.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda til va nutq rivojini ta'minlashda interaktiv o'yin texnologiyalaridan tizimli foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Tadqiqot Toshkent viloyati, Olmaliq shahri 3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 5–6 yoshli bolalar ishtirokida, ikkita katta guruh misolida amalga oshirildi. Eksperimental guruhda bolalar bilan til va nutqni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy interaktiv metodlar — so'z o'yinlari, rolli o'yinlar, raqamli interaktiv o'yinlar hamda hikoya asosidagi ijodiy mashg'ulotlar muntazam qo'llanildi.

Tajriba natijalariga ko'ra, so'z o'yinlari (so'z topish, sinonimlarni aniqlash, zanjirli so'z aytish) bolalarning lug'at boyligini 20 foizga, yangi so'zlarni mustaqil qo'llash qobiliyatini 25 foizga oshirdi. Bu esa bolalarning so'z boyligi, semantik tafakkuri va nutqdagi moslashuvchanligini kuchaytirganini ko'rsatadi.

Rolli o'yinlar (dialoglar, sahnalashtirilgan hikoyalar, dramatisatsiya mashg'ulotlari) esa bolalarning gap tuzish uzunligi 18 foizga, nutqdagi ifoda aniqligi 22 foizga yaxshilanishiga olib keldi. Ushbu o'yin shakli bolalarning muloqotga kirishish, his-tuyg'ularni ifodalash va nutq ohangini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini mustahkamladi.

¹ Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Эксмо, 2003.

² Леонтьев А.Л. Становление психологии деятельности.

³ Брунер Дж. Психология познания. За пределами непосредственной информации. - Пер. с англ. - М.: Прогресс, 1977. - 413 с.

⁴ Ушакова О.С. Развитие речи детей дошкольного возраста. - М.: Изд-во института психотерапии. – 2001.

Raqamli interaktiv o'yinlar yordamida esa talaffuz aniqligi 20 foizga, fikrni aniq va ravon ifodalash ko'nikmasi 22 foizga oshgani aniqlandi. Mazkur o'yinlar multimediya vositalari, audio-vizual materiallar va ovozli interaktiv topshiriqlar orqali amalga oshirildi, bu esa bolalarning e'tibor, eshitish differensiasiyasi va talaffuz mexanizmlarini rivojlantirdi.

Bundan tashqari, hikoya yaratish asosidagi o'yinlar bolalarning ijodiy tafakkurini faollashtirib, ijodiy gap tuzish ko'rsatkichini 28 foizga oshirdi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar berilgan rasm, voqea yoki obraz asosida mustaqil hikoya tuzish, voqealar ketma-ketligini izchil bayon etish ko'nikmasini shakllantirdilar.

Tajriba davomida kuzatilgan guruhli o'yin faoliyati bolalarning tinglash madaniyati, nutq faolligi va o'zaro muloqotga kirishish tayyorgarligini sezilarli darajada rivojlantirdi. Umuman olganda, interaktiv o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat nutqning fonetik va leksik tomonlarini rivojlantirdi, balki bolalarning kommunikativ kompetensiyasini, ijtimoiy faolligini ham mustahkamladi (1-jadval).

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv o'yinlardan tizimli foydalanish til va nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi. Shu bois, pedagog va ota-onalarga bunday o'yinlarni nafaqat ta'lim muassasalarida, balki uy sharoitida ham muntazam qo'llash tavsiya etiladi. Bu esa bolaning nutqiy kompetensiyasini yanada takomillashtirib, ularning kommunikativ va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning til va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nutqni rivojlantirish jarayoni bolaning kognitiv, emosional va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ta'lim-tarbiya jarayonida kompleks va interfaol usullardan samarali foydalanish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotida quyidagi zamonaviy usullar o'z samaradorligi bilan ajralib turibdi:

Birinchi, bolalarning nutqini interfaol o'yinlar orqali rivojlantirish usuli. Bu usulda "Rolli o'yinlar", "So'z topishmachoq", "Hikoya tugatish" kabi faoliyat turlari orqali bolalarning lug'at zaxirasi boyiydi, ularning ijodiy fikrlashi va nutq faolligi rag'batlantiriladi. Masalan, "Men nima haqida gapiryapman?" kabi o'yinlar bolani so'z va fikr o'rtasida bog'lanish o'rnatishga, o'z fikrini aniq ifoda etishga o'rgatadi. Bu turdagi mashg'ulotlar orqali bolalar nafaqat so'zlarni o'rganadi, balki muloqotga kirishish, savol berish va javob qaytarish kabi nutqiy ko'nikmalarni ham shakllantiradilar.

Ikkinchi, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish usuli ham bolalar nutqini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Audio-video materiallar, multafilmlar, raqamli ta'lim dasturlari (masalan, ABCmouse, Lingokids, Khan Academy Kids¹) bolalarning diqqatini jalb etadi, so'zlarni vizual va eshituv xotira orqali mustahkamlaydi. Bu usul bolalarda ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, nutqni tabiiy muhitda qabul qilish va qayta ifoda etish imkonini yaratadi.

Uchinchi, kommunikativ yondashuv usuli bolani "faol ishtirokchi" sifatida nutqiy faoliyatga jalb etadi. Bu usulda bola faqat tinglovchi emas, balki muloqot jarayonining tashabbuskori sifatida ishtirok etadi. "Ertakni davom ettir", "O'z hikoyangni ayt", "Do'sting bilan suhbat qur" kabi mashqlar orqali bolalarning dialogik va monologik nutqi rivojlanadi, muloqotdagi tabiiylik va erkinlik ta'minlanadi. Natijada bolalar so'z orqali fikr almashish, ehsosotini² ifoda etish va ijtimoiy munosabatlar o'rnatishni o'rganadilar.

To'rtinchi, STEAM-yo'nalishli mashg'ulotlardan foydalanish nutq rivojlanishini integrativ asosda ta'minlaydi. Bu yondashuvda til va nutq faoliyati tabiatshunoslik, matematika, musiqa, san'at va texnologiya sohalari bilan bog'langan holda tashkil etiladi. Masalan, tabiat haqidagi suhbatlar, ranglar va shakllar haqidagi topshiriqlar yoki musiqiy ritmlar orqali so'zlarni ifoda etish mashg'ulotlari bolaning so'z boyligini kengaytiradi va nutqni amaliy faoliyat bilan bog'laydi. Bu esa bolada tizimli fikrlash, logik

¹ <https://www.khanacademy.org/kids>

² Фомина И.А. Проект "Развитие речи через коммуникативные игры (для детей старшего дошкольного возраста 5-6 лет)".

1-jadval. Interaktiv o'yinlar orqali bolalar nutqini rivojlantirish natijalari

№	O'yin turi / metod	O'rganilgan ko'rsatkich	O'sish foizi (%)
1	So'z o'yinlari	Nutq boyligi	20%
2		Yangi so'zlarni qo'llash qobiliyati	25%
3	Rolli o'yinlar	Gap uzunligi	18%
4		Ifoda aniqligi	22%
5	Raqamli interaktiv o'yinlar	Talaffuz aniqligi	20%
6		Fikrni aniq va ravon ifoda etish	22%
7	Hikoya yaratish asosidagi o'yinlar	Ijodiy gap tuzish qobiliyati	28%
8	Guruh o'yinlari	Tinglash va muloqotdagi faollik	–

izchillik va ijodiy nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol o'yinlar, raqamli resurslar, kommunikativ va integrativ yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi bolalarning nutq faolligini kuchaytiradi, muloqotga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni keyingi ta'lim bosqichlariga nutqiy tayyorgarlik holatga keltiradi.

Didaktika nuqtai nazaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning til va nutqini rivojlantirish jarayoni keng didaktik imkoniyatlarga ega. Avvalo, didaktik o'yinlar va maxsus materiallar bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tuzilgan vizual va audio vositalar orqali so'zlarni o'zlashtirish, ma'noni anglash hamda so'z boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijodiy mashg'ulotlar – rasm chizish, qo'shiq aytish, she'r yodlash va sahnalashtirish kabi faoliyat turlari orqali bolalarda nutqiy faollikni kuchaytiradi, ularning hissiy taassurotlari orqali fikrni ifoda etish qobiliyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, muhit didaktikasi nutq rivojlanishida muhim omil bo'lib, bolaning atrof-muhitdagi ob'ektlar bilan muloqotini tashkil etish, ularni ta'riflash, tavsiflash, solishtirish va savol-javob orqali fikrlash jarayonini faollashtiradi. Bunday yondashuv bolada nutqiy faollikning tabiiy rivojlanishini ta'minlab, so'z orqali idrok, xotira va tafakkurni mustahkamlaydi. Shu tariqa, didaktik imkoniyatlar bolaning til va nutqini rivojlantirish jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, uning ijodiy, kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda til va nutqni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatning ta'lim tizimi bola shaxsining kommunikativ qobiliya-

tlarini shakllantirishga turlicha yondashuvni qo'llaydi. Finlyandiya tajribasida¹ bolalarga tilni o'rgatish "erkin so'zlashuv muhiti" asosida tashkil etiladi. Bu tizimda grammatik qoidalarni emas, balki so'z va nutq orqali ma'noni anglash va uni erkin ifoda etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglar bolalarni fikrlashga, savol berish va o'z mulohazasini bildirishga rag'batlantiradilar.

Yaponiya tajribasida esa nutq rivojlanishi estetik ta'lim bilan uzviy bog'langan². Bolalar she'r, musiqa va harakat uyg'unligi orqali so'z va hisni birlashtirishni o'rganadilar. Bu jarayonda til o'rgatish faqat verbal kommunikatsiya bilan cheklanmay, balki bolaning hissiy dunyosi va badiiy tafakkurini boyitish bilan ham ta'minlanadi. O'zbekiston amaliyotida ham mazkur yo'nalishda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ilk qadam" davlat dasturi³ bolalarda til va muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u pedagogdan individual yondashuv, innovatsion usullardan foydalanish hamda zamonaviy didaktik vositalarni qo'llashni talab qiladi. Bu dastur bolaning yosh xususiyatlariga mos ravishda nutq faoliyatini rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga qaratilgan. Shu tariqa, xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, til va nutq rivojlantirishda asosiy e'tibor bolaning

¹ Шейхет А.И. Оптимизация процесса обучения иноязычному устно-речевому общению учащихся основной школы в условиях дополнительного образования (на материале финского языка). – 2015.

² Чистякова Д.В. Доклад на тему «Опыт организации дошкольного образования в Японии». - https://xn--j1ahfl.xn--p1ai/library/tema_opit_organizatcii_doshkolnogo_obrazovaniya_v_ya_191015.html

³ "Илк қадам" мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури БМТнинг Болалар жамғармаси ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси техник кўмаги ёрдамида яратилди ва нашр этилган. 2018 йил.

2-jadval. Nutq rivojlanishiga ijodiy faoliyat va mayda motorikani rivojlantiruvchi mashg'ulotlar

№	Faoliyat turi	Maqsad va vazifa	Mashg'ulot misollari	Asboblari va materiallar	Rivojlanadigan ko'nikmalar
11	Barmoq mashqlari va o'yinlar	Mayda motorika orqali nutqni faollashtirish	"Barmoq teatri", "Qo'g'irchoq barmog'im"	Barmoq niqoblari, tez aytilmalar	Nutq ritmi, so'z boyligi, diqqat
22	Shnurovka va bonduk ishlari	Qo'l harakatining aniqligini oshirish	Harf va shakllarni shnurovka qilish	lplar, tugmalar, bonduklar	Koordinatsiya, sabr, diqqat
33	Modellashtirish va qurish ishlari	Ijodiy fikrlashni rivojlantirish	Plastilin, qog'oz bilan ishlash	Lego, qog'oz, qaychi, yopishtirg'ich	Fazoviy tafakkur, tasvirlovchi nutq
44	Don va urug'lar bilan mozaika	Mayda motorikani mustahkamlash	Donlardan naqsh yaratish	Loviya, manna, karton, yopishtirg'ich	Estetik his, sabr, diqqat
45	Grafik mashqlar	Yozuvga tayyorgarlik	"Naqshni davom ettir", "Grafik diktant"	Qalam, daftar, shablon	Qo'l harakatining aniqligi, makon hissi
56	Teatralashtirilgan o'yinlar	Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish	"Barmoq teatri", "Soya teatri"	Qo'g'irchoqlar, fon, musiqa	Nutq ifodachanligi, jamoaviy muloqot
67	Musiqa va ritmik harakatlar	Nutq va harakat ritmini uyg'unlashtirish	Qo'shiq bilan harakat	Baraban, qo'l chalish asboblari	Ritm hissi, talaffuz aniqligi

tabiiy ehtiyojiga, faol muloqotga jalb etilishiga hamda emotsional muhit yaratilishiga qaratilishi zarur. Bu yondashuv bola nutqini faqat ta'lim vositasi sifatida emas, balki shaxs rivojlanishining markaziy mexanizmi sifatida ko'radi. Shu asosda, maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv o'yinlardan muntazam foydalanish til va nutqni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ota-onalar va pedagoglarga esa bunday o'yinlarni uy sharoitida ham qo'llash tavsiya etiladi, bu esa bolaning nutq ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning til va nutq rivojlanishi — bu nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u bolaning emotsional holati, ijtimoiy tajribasi va atrof muhiti bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy axborot muhitida bu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion, interaktiv va integrativ usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq faoliyatini rivojlantirish nafaqat so'z boyligini oshirish, balki ularning fikrlash, his qilish va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida quyidagi yo'nalishlar nutq rivojlantirishning eng samarali shakllari hisoblanadi:

1. Interaktiv multimedia muhitini yaratish — audio, video va raqamli resurslar yordamida

bola diqqatini faollashtirish, so'z va obrazni bog'lash qobiliyatini rivojlantirish.

2. Tarbiyachilar malakasini oshirish — nutq psixologiyasi va lingvodidaktika bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish orqali pedagogning kasbiy salohiyatini mustahkamlash.

3. Xorijiy tajribalarni lokal muhitga moslashtirish — Finlyandiya, Yaponiya va boshqa davlatlar amaliyotidagi ma'noga asoslangan va estetik yondashuvlarni mahalliy kontekstga joriy qilish.

4. Diagnostik testlar va elektron platformalardan foydalanish — bolalarning nutq rivojlanish dinamikasini baholash va individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, nutq rivojlanishiga ijodiy faoliyat va mayda motorikani rivojlantiruvchi mashg'ulotlar katta ta'sir ko'rsatadi (2-jadval).

Ushbu faoliyatlar bolaning so'z boyligini kengaytirish, nutq ritmini to'g'ri shakllantirish va kommunikativ qobiliyatini oshirishda katta samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq rivojlantirish tizimini takomillashtirish uchun psixolingvistik yondashuv, didaktik innovatsiyalar va interaktiv muhitni uyg'unlashtirish zarur. Bu esa bola shaxsining so'z orqali fikrlashini, his-tuyg'ularini ifoda etishini va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirokini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брунер Дж. Психология познания. За пределами непосредственной информации. - Пер. с англ. - М.: Прогресс, 1977. - 413 с.
2. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Эксмо, 2003.
3. Лурия А.Р. Об историческом развитии познавательных процессов // Психологическая наука и образование. – 1997. – Т. 2. – №. 4.
4. Leontiev A.L., Luria A.R., Vigotsky L.S. Psicología y pedagogía. – Ediciones Akal, 2004. – Т. 99.
5. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Litres, 2022.
6. Тихеева Е.И. Развитие речи детей. – М.: Издательство Юрайт, 2025. — 161 с.
7. Ушакова О.С. Развитие речи детей дошкольного возраста. - М.: Изд-во института психотерапии. – 2001.
8. Фомина И.А. Проект “Развитие речи через коммуникативные игры (для детей старшего дошкольного возраста 5-6 лет)”. ..
9. Шейхет А.И. Оптимизация процесса обучения иноязычному устно-речевому общению учащихся основной школы в условиях дополнительного образования (на материале финского языка). – 2015.
10. Чистякова Д.В. Доклад на тему «Опыт организации дошкольного образования в Японии». - https://xn--j1ahfl.xn--p1ai/library/tema_opit_organizacii_doshkolnogo_obrazovaniya_v_ya_191015.html